


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiylari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

37 121



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 550



Oilaviy korxona

5 192



Xususiy korxona

42




Aksiyadorlik jamiyat

586




Boshqalar

*Mas'uliyati cheklangan jamiyat,
birlik*



*xususiy korxona,
birlik*



Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatları bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatları bo‘yicha, o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2024-yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2 366 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 958 ta, oilaviy korxonalar 278 ta, xususiy korxonalar 41 ta, muassasalar 63 ta va boshqalar 26 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi

(1-iyul holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 5 151 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashlil etdi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 18,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 93,3 % ni (jami sanoatdagi ulushi 95,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 87,1 % ni (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 99,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 126,9 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) tashki etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 869 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 89,2 % ni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

fuqarolik obyektlarini qurishda – o‘tgan yilga nisbatan 98,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 15,0 %);

bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan – 85,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 53,7 %);

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariada – 92,6 % ni (jami qurilishdagi ulushi 31,3 %) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 8 616 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,8 % ni tashkil etdi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 93,3 % ni (jami savdodagi ulushi 63,2 %);

avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlashda o‘tgan yilga nisbatan – 101,5 % ni (jami savdodagi ulushi 7,1 %);

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 96,7 % ni (jami savdodagi ulushi 29,7 %) tashkil etadi.



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

958



- Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash

23



- Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

14



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



75

Yashash bo‘yicha xizmatlar



1 237

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 312 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:


oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 108,7 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,3 %);

yashash bo‘yicha xizmatlar – 107,1 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,7 %) tashkil etadi.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan

korxona va tashkilotlar soni


(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 432 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 114,6 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,9 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 102,6 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,8 %), aloqa yo'nalishida o'tgan yilga nisbatan – 106,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 47,9 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 110,8 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,5 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 100,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,8 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuva radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 125,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,1 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra 3 550 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 249 taga yoki 7,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 502 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 106 taga yoki 7,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 278 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 133 taga yoki 91,7 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra 37 121 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 048 taga yoki 5,8 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 299 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 954 taga yoki 4,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 958 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 107 taga yoki 5,2 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi chet el investitsiyasilar
ishtirotidagi korxona va tashkilotlar soni**
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasilar ishtirotidagi korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra 518 tani tashkil etib, ulardan 310 tasi yoki 59,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 48 taga yoki 10,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 48 ta xorijiy kapital ishtirotidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasilar ishtirotidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Cel investitsiyasilarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasilarini ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jami	324	369	392	311	310
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25	23	26	22	17
Sanoat	188	204	199	155	152
Qurilish	21	24	31	19	20
Savdo	39	55	65	59	64
Tashish va saqlash	3	4	4	5	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	10	10	11	11
Axborot va aloqa	4	4	5	6	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	6	3	4
Boshqa turlar	30	40	46	31	33

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 28 413 tani tashkil etdi.


Ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: Andijon shahrida – 26,2 foiz, Asaka – 8,7 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,7 foiz, Baliqchi – 6,0 foiz, Oltinko‘l – 5,3 foiz, Qo‘rg‘ontepa – 5,1 foiz, Izboskan – 4,9 foiz, Jalaquduq – 4,7 foiz hamda Marhamat – 4,6 foiz tumanlarida tashkil etadi.

**Hududlar kesimida chet el investitsiyasilarini ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Viloyat bo'yicha:	310	130	180
shaharlar:			
Andijon sh.	116	40	76
Xonobod sh.	12	5	7
tumanlar:			
Andijon	22	12	10
Asaka	18	9	9
Baliqchi	10	5	5
Bo'ston	8	4	4
Buloqboshi	15	9	6
Jalaquduq	14	4	10
Izboskan	18	6	12
Ulug'nor	4	1	3
Marhamat	13	8	5
Oltinko'l	20	8	12
Paxtaobod	3	2	1
Xo'jaobod	11	4	7
Shahrixon	19	10	9
Qo'rg'ontep'a	7	3	7

Yetakchi o'rinni 84 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 20,0 foiz), Turkiya (ulushi 13,5 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 13,5 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni**
(2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 28,3 %, Andijon 8,2 %, Asaka 7,6 %, Shahrixon 6,6 %, Baliqchi 6,0 %, Oltinko‘l 5,2 %, Izboskan 5,0 %, Marhamat 4,8 %, Jalaquduq 4,6 %, Xo‘jaobod 4,6 %, Paxtaobod 4,4 %, Qo‘rg‘ontepa 4,3 %, Buloqboshi 2,9 %, Ulug‘nor 2,9 %, Bo‘ston 2,8 % tumanlari va Xonobod shahri 1,8 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami chet el investitsiyasilarini ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)**




So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (23,0 %), Qo'rg'ontep'a (16,2 %), Buloqboshi (14,4 %), Andijon (9,0 %), Andijon shahri (8,6 %), Asaka (5,4 %), Oltinko'l (5,4 %), Shahrixon (4,7 %), Izboskan (4,3 %), Baliqchi (2,5 %), Jalaquduq (2,1 %), Xonobod shahri (1,4 %), Ulug'nor (1,1 %), Marhamat (1,1 %), Paxtaobod (0,4 %) hamda Xo'jaobod (0,4 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PF-5739-son hamda 2022-yil 20-aprel PF-113 Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagagi 704-son qarori bilan:

- tijorat korxonalari hisobiga 9 oy davomida pul mablag‘lari tushmaganligi yuzasidan banklar davlat soliq organlarini tizim orqali xabardor qilishi;
- shundan so‘ng, davlat soliq organlari taqdimnomasiga asosan Davlat xizmatlari markazlari korxonani harakatsiz holatga o‘tkazishi va bu haqida davlat reyestriga hamda Tizimga tegishli yozuv kiritiladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.